

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

**QarshiDU**


**Rektori D.X. Nabiyev**


**2023-yil**


**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONI**


**KIRISH IMTIHONLARIDA “GEOGRAFIYA”  
FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO‘NALISHLAR  
(KO‘ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR**

Dastur Qarshi davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi "\_\_\_\_" sonli majlis bayoni.

**Tuzuvchilar:**  Qarshi davlat universiteti Geografiya va agronomiya fakulteti Geografiya kafedrasini mudiri dots. M.G.Nazarov

 Qarshi davlat universiteti Geografiya va agronomiya fakulteti Geografiya kafedrasini v.b. dots. g.f.f.d. (PhD) X.X.Jumayev

**Taqrizchilar:**  Qarshi davlat universiteti Geografiya va agronomiya fakulteti Geografiya kafedrasini dotsenti M.A.Fayzullayev

 Qarshi davlat universiteti Geografiya va agronomiya fakulteti Geografiya kafedrasini kat. o'qituvchisi g.f.n. L.N.Erdonov

## **KIRISH**

Mazkur dastur ko'zi o'zida abituriyentlar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda tabiiy geografiya hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga tegishli ma'lumotlar o'rin olgan.

Tabiiy geografiya qismida Quyosh sistemasi, geografik qobiq va uning qismlari - litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera, hamda geografik qobiqning tabaqalanishi, inson xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy geografik jarayonlar, O'zbekiston tabiiy geografiyasi, O'zbekiston hududining tabiiy geografik rayonlashtirilishi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya qismida esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy termin va tushunchalari, O'zbekiston Respublikasining geografik o'rni va uning xo'jalik rivojlanishiga ta'siri, O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoqlar tuzilishi, O'zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish, Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi va rivojlanishi, dunyo siyosiy xaritasida O'zbekistonning tutgan o'rni kabi mavzular o'rin olganki, ushbu mavzular abituriyentlar bilimini baholashda muhim o'rin tutadi. Abituriyentlarning bilimlari tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

### **Fanning maqsad va vazifalari**

Geografiya fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning shu sohaga bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda geografiya ta'limi kasbi bo'yicha faoliyat yuritish kompetentsiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Ijodiy imtihonda abituriyentlar, avvalo, geografiya fanining jamiyat rivojida tutgan o'rni, yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati, o'zbek geograflarining jahon hamjamiyatidagi o'rni va geografiya ta'limini yuksak rivoj topganligi haqida asosli va mantiqli fikr-mulohaza yurita olishlari talab etiladi.

### **Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar**

Geografiya fanidan imtihoni bor boshqa ta'lim yo'nalishlari bo'yicha geografiya fanining 2023-2024 o'quv yili ijodiy (kasbiy) imtihon dasturi bo'yicha "Tabiiy geografiya" hamda "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" fanlarining har biriga quyidagi talablar qo'yiladi:

"Tabiiy geografiya" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

Tabiiy geografiyaning o'rganish obyekti, predmeti va vazifalari. Uning xo'jalikdagi o'rni, amaliy ahamiyati. Fanning rivojlanish tarixi, Yer yuzining kashf etilishi va o'rganilish tarixi.

Quyosh sistemasi va Yer sayyorasi. Yerning Quyosh sistemasidagi o'rnini. Yerning shakli, harakatlari, ularning geografik oqibatlari. Gradus to'ri, geografik koordinatalar. Joy plani va geografik xaritalar. Azimut. Masshtab. Joyning topografik plani. Geografik xarita.

Litosfera-Yerning tosh qobig'i (Yer po'sti). Yerning ichki tuzilishi. Yerning tosh qobig'i, Yer po'sti. Yer yuzi relefini hosil qiluvchi ichki va tashqi jarayonlar.

Atmosfera-Yerning havo qobig'i. Havo qobig'ining tarkibi, tuzilishi. Yerning radiatsiya balansi. Albedo. Havo harorati. Havo bosimi va shamollar. Ob-havo va iqlim. Iqlim mintaqalari, turlari.

Gidrosfera- suv qobig'i. Gidrosferaning tarkibiy qismlari. Dunyo okeani. Quruqlikdagi suvlar. Daryolar, ko'llar va muzliklar. Botqoqliklar. Yer osti suvlari.

Biosfera-hayot qobig'i. Biosfera, uning tarkibi. Tabiatdagi o'rnini. Biosferaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Organizmlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar. Biosferaga inson ta'siri.

Geografik qobiq. Umumiy xususiyatlari, chegaralari. Gorizont va vertikal tabaqalanishi. Umumiy geografik qonuniyatlar. Tabiat komplekslari. Yer yuzini tabiiy-hududiy rayonlashtirish.

Inson xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy geografik jarayonlar. Tabiiy geografik jarayonlar. Denudatsiya. Yerozion jarayonlar. Jarlanish va irrigatsiya eroziyasi. Gravitatsion jarayonlar. Tuproqning sho'rlanishi, qatqaloq hosil bo'lishi, botqoqlanish jarayonlari.

O'zbekiston tabiiy geografiyasi. O'zbekistonning geografik o'rnini, geologik tuzilishi, reliefi va orografiyasi, iqlimi va gidroografiyasi, tuproqlari, o'simlik va hayvonot olami, ularning geografik tarqalishidagi xususiyatlar.

O'zbekiston hududining tabiiy geografik rayonlashtirilishi. O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirilishi. Tekislik va tog'oldi-tog' kichik provinsiyalari, ularning o'zaro bog'liqligi va tafovutlari. Tekislik kichik provinsiyasi okruglari: Ustyurt, Quyi Amudaryo, Orol, Qizilqum, Quyi Zarafshon. Tog' oldi-tog' kichik provinsiyasi okruglari: Farg'ona, Chirchiq-Ohangaron, Mirzacho'l, O'rta Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo okruglarining tabiiy geografik xususiyatlari va tavsifini bilishi kerak.

"Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot ob'ekti va predmeti. Maqsad va vazifalari. Uning fanlar tizimida tutgan o'rnini va amaliy ahamiyati. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy termin va tushunchalari. Hududiy mehnat taqsimoti. Ixtisoslashuv. Iqtisodiy rayonlar. Hududiy ishlab chiqarish majmualari. Iqtisodiy geografik o'rin.

O'zbekiston Respublikasining geografik o'rni va uning xo'jalik rivojlanishiga ta'siri. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari. Ularning milliy iqtisodiyotni shakllanishi va rivojlanishidagi roli.

O'zbekiston Respublikasi aholisi. Aholi soni, tadrijiy o'zgarishlari va joylanishi. Axolining tarkibi va takror barpo bo'lishi. Mehnat resurslari.

O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoqlar tuzilishi. Tarmoqlararo majmualar. Yoqilg'i- energetika, metallurgiya, kimyo, mashinasozlik va metalni qayta ishlash, qurilish matEriallari, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash, engil va oziq-ovqat sanoati. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. Dehqonchilik va chorvachilikni hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi. Transport va uning turlari. Aholiga xizmat ko'rsatish soxalari geografiyasi.

O'zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish. Iqtisodiy rayonlarning xo'jalik rivojlanishi xususiyatlari. Toshkent iqtisodiy rayoni. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni. Farg'ona iqtisodiy rayoni. Samarqand iqtisodiy rayoni. Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayoni. Qashqadaryo iqtisodiy rayoni. Surxondaryo iqtisodiy rayoni. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari.

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Jahon mamlakatlarining tabiiy sharoiti va resurslari. Jahon aholisi va uning joylanishi. Jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlari. Tarmoqlar tarkibi. Jahon sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti. Jahon mamlakatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Global muammolar.

Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi va rivojlanishi. Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra turlari. Mintaqalar va mamlakatlarning dunyo siyosiy xaritasida tutgan o'rni va roli. Dunyo siyosiy xaritasida Markaziy Osiyo davlatlari va O'zbekistonning tutgan o'rni kabilarni bilishi kerak.

## **IJODIY (KASBIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH M E Z O N I**

Ko'zi ojizlar uchun ijodiy imtihon 5 ballik tizimda baholanadi.

Ko'zi ojizlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihon biletiga to'rttadan nazariy savol kiritiladi.

**Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:**

**Quyidagi holatlarda abituriyentga 5 ("a'lo") baho qo'yiladi:**

- barcha savollarga to'liq javob bersa;
- xatolarga yo'l qo'ymasa;
- javobi ilmiy va mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'lsa;
- fikrlar asosli va faktik ma'lumotlarga asoslangan bo'lsa.

**Quyidagi holatlarda abituriyentga 4 ("yaxshi") baho qo'yiladi:**

- to'rtta savolga javob berish jarayonida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa;
- ayrim juz'iy noaniqliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa;
- o'z fikrini asoslashda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'ysa;
- bildirilgan fikrlar faktik ma'lumotlarga asoslanib berilsa;

**Quyidagi holatlarda abituriyentga 3 ("o'rta") baho qo'yiladi:**

- to'rtta savolga javob berish jarayonida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa;
- ayrim juz'iy noaniqliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa;
- o'z fikrini asoslashda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'ysa;
- fikrlar asosli, lekin faktik ma'lumotlarga asoslanmagan bo'lsa;

**Quyidagi holatlarda abituriyentga 2 ("qoniqarsiz") baho qo'yiladi:**

- barcha savolga ham to'g'ri javob bera olmasa;
- barcha savollarga berilgan javoblar noto'g'ri va asossiz bo'lsa.

**Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

"Geografiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

"Geografiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon natijalaridan norizo abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha apelatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

**Apelatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Apelatsiya komissiyasi ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan bir paytda 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari e'lon qilingan kundan boshlab, 24 soat ichida apelatsiya komissiyasiga murojaat etishi shart. Aks holda ko'rsatilgan muddatdan o'tib qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Apelatsiya komissiyasi abituriyentlar tomonidan bildirilgan og'zaki va yozma murojaatlarga javob beradi.

Abituriyent tomonidan bildirilgan murojaatni ko'rib chiqadi va 24 soat ichida xulosalarni ma'lum qiladi.

**Qabul komissiyasi ma'sul kotibi:**



**D. Xudoyberdiyev**